"KELIShILDI"
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuni manfaatlarini himoya qilish bo'yicha Vakil
_____________ D. Kasimov
«__23__» __dekabr__ 2022-yil

"TASDIQLAYMAN"
O'zbekiston Respublikasi
Transport vazirligi huzuridagi «O'ztemiryo'lnazorat» inspeksiyasi boshligi v.b.
_____________ D.Axmedov
«__22__» __dekabr__ 2022-yil

**Tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida temir yo'llarda yuk va yo'lovchilarni tashish xavfsizligi sohasidagi tekshiruvlar yuzasidan savolnoma savollari ro'yxati**

| T/r | Savol (tekshiriladigan masala, holat) | Savol doirasida tekshirish vakolati berilgan normativ-huquqiy hujjat |
|---|---|---|
| 1 | Temir yo'l transporti korxonalari va tashkilotlari tomonidan temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlashga, temir yo'l transportining harakatlanuvchi tarkibi, texnik vositalarini saqlash, xizmat kursatish, ta'mirlash va ulardan foydalanishga oid normativ- huquqiy hujjatlar va texnik jixatdan tartibga solish soxasidagi normativ hujjatlar talablari ijrosini o'rganish.. | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-apreldagi 337-son qarori, 11-band. |
| 2 | Temir yo'l transporta korxonalari va tashkilotlari tomonidan temir yo'llarda Poyezdlar harakati xavfsizligini ta'minlashga va temir yo'lda tashishlar xavfsizligini ta'minlaydigan texnik vositalarning ishonchliligini oshirishga qaratilgan kompleks profilaktika chora-tadbirlari belgilangan muddatlarda bajarilishini o'rganish. | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-apreldagi 337-son qarori, 11-band. |
| 3 | Poyezdlar harakati xavfsizligi talablarini buzish holatlari bo'yicha temir yo'l transporti korxonalari va tashkilotlari tomonidan olib boriladigan xizmat tekshiruvlarining to'g'riligini o'rganish (halokatga uchrash va avariyalar bundan mustasno). | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-apreldagi 337-son qarori, 11-band. |
| 4 | Temir yo'l transporti korxonalari va tashkilotlari tomonidan temir yo'llarda tashishlar xavfsizligini oshirish bo'yicha tarmoq dasturlarining ijrosini o'rganish. | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-apreldagi 337-son qarori, 11-band. |
| 5 | Temir yo'l transporti obyektlarini ishlab chiqaruvchi, quruvchi va ulardan foydalanuvchi korxonalar va tashkilotlar faoliyatini ularda poyezdlarning xavfsiz harakatlanishini ta'minlash bo'yicha texnik tekshirish o'tkazish. | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-apreldagi 337-son qarori, 11-band. |
| 6 | Temir yo'l transporta korxonalari poyezdlar harakati bilan bog'liq hamda mehnat sharoiti noqulay ishlarda band bo'lgan xodimlarni dastlabki tarzda va | O'zbekiston Respublikasi "Temir yo'l transporta to'g'risida"gi qonuni 16-moddasi. |

| | | |
|---|---|---|
| | vaqti-vaqti bilan tibbiy ko'riklardan o'tkazishni tashkil etilganligini o'rganish. | |
| 7 | Temir yo'lning tashish jarayoni bilan bog'liq boshqa bo'linmalari hududlari, poyezdlar harakati amalga oshiriladigan hamda manyovr va yuk ortish, yuk tushirish ishlari bajariladigan yo'lovchilar platformalari va temir yo'l tarmoqdari o'ta xavfli zonalarni va zarurat bo'lganda atrofi o'rab ko'yilishini o'rganish. | O'zbekiston Respublikasi "Temir yo'l transporta to'g'risida"gi qonuni 21 -moddasi. |
| 8 | Qonunchilikda ko'zda tutilgan holatlarda moddiy va texnika vositalari zaxirasiga ega bo'lishlari zarurligini o'rganish. | O'zbekiston Respublikasi "Temir yo'l transporta to'g'risida"gi qonuni 23-moddasi. |
| 9 | Temir yo'l transportida yo'lovchilar, bagaj va yuk bagaj tashish qoidalariga rioya etilishini o'rganish. | Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 13-apreldagi 109-son qarorining ilovasi. |
| 10 | Yo'lovchi tashish korxonalarida tashuvchi tomonidan yo'lovchining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga zarar yetkazganlik uchun o'z fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtalash majburiyati bajarilishini o'rganish. | O'zbekistan Respublikasi 2015-yil 26-maydagi O'RQ-386-sonli Qonuni 22-moddasi. |
| 11 | O'zbekistan Respublikasida qabul qilingan, hamdo'stlikka a'zo davlatlar temir yo'l transporti Kengashi tomonidan tasdiqlangan va boshqa xalqaro turdagi texnik jihatdan tartibga solishga oid hujjatlarga rioya qilinishini o'rganish. | Hamdo'stlikka a'zo davlatlar temir yo'l transporti Kengashi tomonidan tasdiqlangan va boshqa xalqaro turdagi texnik jihatdan tartibga solishga oid hujjatlar. |
| 12 | Temir yo'lda favqulodda vaziyatlar sodir bo'lishi xavfi yoki yuzaga kelganligi tug'risida xabardor qilinganligini, shuningdek, ularning kutilayotgan oqibatlari, kurilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlaganligini o'rganish. | O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-avgustdagi 515-son qarori 2-ilovasi. |
| 13 | Temir yo'l transportida elektr qurilmalarni o'rnatish qoidalari talablarga rioya etilishini o'rganish. | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishilgan holda texnik hujjat deb topilgan, 2004-yil 27-fevral, 20-15-62/24- son. |
| 14 | Iste'molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya etilishini o'rganish. | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-sonli qarori. |
| 15 | Harakatlanuvchi tarkibning umumiy foydalaniladigan temir yo'llarga chiqishida qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishini hamda umumiy foydalaniladigan temir yo'llarga | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-fevraldagi 86-sonli qarori 27-ilovasi. |

| | | |
|---|---|---|
| | chiqishi uchun olingan ruxsatnoma doirasida harakatlanishini o‘rganish. | |
| 16 | Harakatdagi temir yo‘l tarkibi va uning tarkibiy qismlarining muvofiqligini baholash talablarini bajarilishini o‘rganish. | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentyabrdagi 537-son qarori 4-bobi. |
| 17 | Texnik jihatdan tartibga solish ob’ektlariga qo‘yiladigan majburiy talablarning qo‘llanilishi hamda ularning muvofiqlik baholanishini tartibga solish talablari bajarilishini o‘rganish. | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 4-iyuldagi 192-son qarori |

**Temir yo‘llarda yuk va yo‘lovchilar tashish xavfsizligini nazorat kilish bulimi boshligi** **D. Nurxojaev**